Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirish.....	617
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra Bahronovna	
Migrant o'quvchilarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	621
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich	
Oliy ta'limda muhandislik faoliyatini ta'minlash metodologiyasi.....	625
Eshonqulov Sherzod Ummatovich	
A Comparative Linguistic Analysis of English and Uzbek Proverbs and Aphoristic Expressions as Structural, Semantic, and Cultural Dimensions	628
Jumayev Sanjar Jurakulovich	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish	631
Komilov Umidjon Normurod o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan loyiha-tadqiqot ishlarini tashkil etishning mazmuni	635
M. X. Tadiyeva	
Raqamli axborot muhitini shakllantirish bosqichida informatika fanining ahamiyatini belgilab beruvchi omillar	639
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Nazarova Madina Abdullayevna, Xolbayeva Gulnora Bakirovna	
Pedagogik konfliktlar: turlari, sabablari va optimal yechimlari	644
Muhammadiyeva Setora Odil qizi	
Subyektga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik-psixologik asoslari	647
Nigora Negmatova	
Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirish	651
Pirimova Mohinur Furqat qizi	
Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning metodik asoslari.....	654
Qurbonnazarova Ziyoda Abdukarim qizi	
O'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirishda interfaol metodlar va ijodiy yondashuvlarning roli.....	657
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Xalqaro futbol musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish	743
Davranov E. O.	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий	748
Койилова Мехринисо	

Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	755
<i>Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna</i>	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
<i>Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
<i>Abdullayeva Moxinur O'lmasboy qizi</i>	
Proporsiyalar siri.....	769
<i>Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna</i>	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil	773
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi	777
<i>Eshmurodova Dilobar Nizom qizi</i>	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
<i>Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora</i>	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida)	784
<i>F. F. Xalilov, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi</i>	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
<i>Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna</i>	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
<i>Jomonqulova Fazilat Esirgapovna</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
<i>Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	798
<i>Mirsaidova Maxbuba</i>	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	801
<i>Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li</i>	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasini.....	804
<i>Parmonova Laylo Iloxomovna</i>	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
<i>Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</i>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<i>Sharipova Go'zal Sodiqovna</i>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
<i>Tangirova Dilbar</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<i>Turanova Iroda Egamberdi qizi</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
<i>Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
<i>Xayitova Firuza Abdullayevna</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
<i>Xaqqulov Komil Yusupovich</i>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA QURISH- YASASH FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Sultonova Nurxon Anvarovna

Qo'qon davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0006-6647-7946



Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning qurish-yasash faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishning ularning har tomonlama rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlarida bolalar rivojlanishida qurish-yasash faoliyatining turli jihatlarini tahlil qilingan. Qurish-yasash faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va shakllari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, qurish-yasash, faoliyat, rivojlanish, mayda motorika, qo'l, tafakkur, xotira, ijodiy fikrlash, ko'nikma.

Abstract: The article discusses the role of properly organizing construction and constructive activities in the comprehensive development of preschool children. The research of pedagogical and psychological scholars has explored various aspects of these activities in child development. The main principles and forms of organizing construction and constructive activities are outlined.

Key words: preschool age, construction, activity, development, fine motor skills, hand, thinking, memory, creative thinking, skills.

Аннотация: В статье рассматривается значение правильной организации строительной и конструктивной деятельности детей дошкольного возраста для их всестороннего развития. В работах педагогов и психологов проанализированы различные аспекты влияния данной деятельности на развитие ребенка. Изложены основные принципы и формы организации строительной деятельности.

Ключевые слова: дошкольный возраст, строительство, деятельность, развитие, мелкая моторика, рука, мышление, память, творческое мышление, навыки.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin va faoliyat turlarining ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, qurish-yasash faoliyati bolalarning kognitiv, emotsional-ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi uchun muhim platforma hisoblanadi. Ushbu faoliyat orqali bolalar atrof-muhitni o'rganish, muammolarni hal etish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini egallaydilar. Qurish-yasash jarayoni bolalarda quyidagi ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi:

- Mayda motorika va qo'l–ko'z koordinatsiyasi: kichik detallarni birlashtirish va joyiga qo'yish orqali barmoqlarning nozik harakatlari rivojlanadi.
- Mantiqiy va fazoviy tafakkur: bolalar bino yoki ob'ektlarning shakli, hajmi va joylashuvini tasavvur qilishni o'rganadilar hamda qismlarning butun bilan aloqasini anglay boshlaydilar.
- Ijodkorlik va tasavvur: bolalar o'z g'oyalarini real ob'ektlarga aylantirib, ijodiy salohiyatlarini namoyon etadilar, mavjud materiallardan yangi narsalar yaratishga intiladilar.
- Muammolarni hal etish: qurilish jarayonida yuzaga keladigan (masalan, minora qulashi) muammolarni hal qilish orqali bolalar tajriba orttiradilar va keyingi urinishlarda yangicha yondashuvlarni qo'llaydilar.
- Matematik tushunchalar: shakllar, ranglar, hajmlar, balans va simmetriya kabi matematik tushunchalar bilan tanishadilar.
- Ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar: agar faoliyat guruhda tashkil etilsa, bolalar hamkorlik qilishni, muzokara olib borishni, bir-birini tinglashni va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlarida bolalar rivojlanishida qurish-yasash faoliyatining turli jihatlari o'rganilgan. Jumladan, rus psixologi L. S. Vygotskiy faoliyatni rivojlantiruvchi ta'lim va bolalar psixologiyasiga oid ilmiy ishlari bilan tanilgan. Uning nazariyasida "zona blizhayshego razvitiya" (rivojlanishning eng yaqin zonasi) tushunchasi asosiy o'rin tutadi. L. S. Vygotskiyga ko'ra, qurish-yasash faoliyati bolaning aynan ushbu zonada ishlashi uchun qulay sharoit yaratadi. Bola kattalar yoki tengdoshlari bilan hamkorlikda mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni bajarishni o'rganadi.

"Ijodiy tasavvur va reallik" masalasida ham L. S. Vygotskiy qurish-yasash faoliyatida ijodiy tasavvurning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Uning fikricha, bu faoliyat orqali bola reallikni tasavvur qiladi, o'z g'oyalarini amalga oshiradi va atrof-muhitni anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

A. N. Leontev faoliyat nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, uning fikricha, faoliyat inson shaxsiyati shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Qurish-yasash faoliyati bolaning predmetli-amaliy faoliyatini rivojlantiradi.

"Yetakchi faoliyat" tushunchasiga ko'ra, maktabgacha yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Biroq qurish-yasash faoliyati ham o'yin bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu faoliyat orqali bola atrof-muhitdagi ob'ektlarning xossalarini, ularning o'zaro aloqalarini o'rganadi. Bu esa uning idrok va tafakkur jarayonlarini boyitadi.

Rus psixologi A. V. Zaporozets bolalarda idrok va tasavvurning rivojlanishiga katta e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida qurish-yasash faoliyatining bolaning sezgi-motor va aqliy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan.

"Sensor rivojlanish" borasida A. V. Zaporozets qurish-yasash jarayonida bolalar shakl, rang, hajm, proporsiya kabi sensor etalonlarni o'zlashtirishini ta'kidlagan. Ushbu faoliyat orqali bolalar predmetlarni tahlil qilish, ularning qismlarini ajratish va butunni qismlardan yig'ish qobiliyatini rivojlantiradilar.

"Obrazli tafakkur" – A. V. Zaporozetsning fikricha, qurish-yasash obrazli tafakkurni rivojlantiradi, chunki bolalar o'z g'oyalarini moddiy shaklga keltirish jarayonida ob'ektlarning vizual obrazlari bilan ishlaydilar.

Pedagog-metodist Z. V. Lishtvan maktabgacha yoshdagi bolalarda qurish-yasash faoliyatini o'rgatish metodikasi bo'yicha izlanishlar olib borgan. U qurilish materiallari bilan ishlash bolaning har tomonlama, ayniqsa, aqliy va estetik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan.

"Qurish-yasash materiallarining ahamiyati" – Z. V. Lishtvan fikricha, yog'och kublar, konstruktorlar va tabiiy materiallar kabi turli qurilish materiallaridan foydalanish bolalarning ijodiy salohiyatini oshiradi, fazoviy tasavvuri va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

"Rejalashtirish ko'nikmalari" – Uning ta'kidlashicha, qurish-yasash faoliyati bolani o'z ishini rejalashtirishga, maqsad qo'yishga va unga erishish yo'llarini topishga o'rgatadi.

Pedagog-psixolog D. V. Mendjeritskaya bolalar o'yinlari va ularning rivojlanishdagi o'rnini o'rgangan. Uning tadqiqotlarida qurish-yasash faoliyatining o'yin bilan uzviy bog'liqligi qayd etilgan.

"O'yin va qurish-yasashning sintezi" – D. V. Mendjeritskaya fikricha, qurish-yasash faoliyati o'yin kontekstida yanada samaraliroq bo'ladi. Bolalar o'zlari qurgan ob'ektlardan o'yin davomida foydalanish orqali ularning funksional ahamiyatini anglaydilar. Bu esa ijodiy faoliyatga rag'bat uyg'otadi.

Yuqoridagi olimlar va pedagog-psixologlar fikrlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning qurish-yasash faoliyati quyidagi rivojlanish turlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

Kognitiv rivojlanish: fazoviy tafakkur, mantiqiy fikrlash, diqqat, xotira va muammo yechish ko'nikmalari shakllanadi.

- Sensor rivojlanish: shakl, hajm, rang, proporsiya kabi sensor etalonlarni o'zlashtirishga yordam beradi.
- Ijodiy rivojlanish: tasavvur, fantaziya va ijodiy salohiyat ortadi.
- Jismoniy rivojlanish: mayda motorika va qo'l–ko'z muvofiqligi rivojlanadi.
- Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish: hamkorlik, muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda uy sharoitida qurish-yasash faoliyatiga alohida e'tibor qaratish, bolalarga turli materiallar bilan erkin ijod qilish imkoniyatini yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan qurish-yasash faoliyatini samarali tashkil etish uchun bir qator metodik tamoyillarga amal qilish zarur. Avvalo, bolalarga turli shakl, hajm va teksturaga ega materiallardan foydalanish imkonini berish lozim. Masalan, Lego, yog'och va magnitli konstruktorlar, shuningdek, tabiiy materiallar – shoxchalar, toshlar, qum, cho'pchalar, barglar hamda qayta ishlangan buyumlar – qutilar, plastik butilkalar, karton g'altaklar, mato bo'laklari samarali vosita bo'la oladi. Bundan tashqari, loy (plastilin), polimer loy, qog'oz va qaychi kabi materiallar ham bolalarning didi, tasavvuri va motorikasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qurish-yasash jarayonida bolalarga erkinlik berilishi, ya'ni ular qurmoqchi bo'lgan obyektini va foydalanmoqchi bo'lgan materiallarni mustaqil tanlashi ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ijodiy fikrlashni



faollashtiradi. Shu bilan birga, bola rejalashtirish va maqsad qo'yish jarayoniga jalb qilinishi zarur, bu esa "Sen nima qurmoqchisan?", "U qanday ko'rinadi?", "Qanday materiallar kerak bo'ladi?" kabi savollar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi yoki ota-ona bu jarayonda faqat yo'naltiruvchi rolini bajarishi, bola o'rniga topshiriqni bajarib qo'ymasligi kerak. Aynan shunday yondashuv bola mustaqilligini oshiradi, muammolarni hal qilishda o'z tajribasiga tayanishga o'rgatadi. Faoliyat davomida xavfsizlik talablari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ishlatiladigan barcha materiallar bolalar uchun xavfsiz bo'lishi, ayniqsa o'tkir, juda mayda yoki yutib yuborilishi mumkin bo'lgan buyumlar ishlatilmasligi kerak. Qurilish yakunlangach, bola bilan birgalikda bajarilgan ish tahlil qilinadi, ya'ni undan nima qurgani, nima uchun aynan shunday shakl tanlagani, qanday qiyinchiliklarga duch kelgani haqida so'raladi. Bunday muhokamalar bolalarning og'zaki nutqini, mantiqiy fikrlashini va o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ba'zida bolalarga ilhom manbai sifatida tayyor namunalari yoki rasmlar ko'rsatish mumkin, ammo ularni aynan shu namunalarni takrorlashga majburlamaslik, erkin ijodiy yondashuvni saqlab qolish muhimdir. Shu tariqa, qurish-yasash faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, sensor, ijodiy, jismoniy hamda ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishiga kompleks tarzda xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurish-yasash faoliyati bolalarda ijodkorlik, fazoviy tafakkur va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu faoliyat turlari orasida konstruktiv o'yinlar alohida o'rin tutadi. Bolalar konstruktorlardan foydalanib uylar, mashinalar, robotlar va boshqa ob'ektlarni yasash orqali muayyan shakl va funksiyani uyg'unlashtirishni o'rganadilar. Bunday o'yinlar fazoviy fikrlashni, muvozanatni va geometrik tasavvurni rivojlantiradi.

Mavzuli qurish-yasash faoliyati esa bolaning mavzuga doir tasavvurlarini modellashtirishga xizmat qiladi. Masalan, "Mening shahrim" yoki "Hayvonot bog'i" kabi mavzular asosida qurilish jarayoni tashkil etilganda, bola konkret fikrlashga, tizimli tasniflashga va real hayotdagi ob'ektlar orasidagi aloqalarni anglashga o'rgatiladi.

Ijodiy qurish-yasash faoliyati cheklovsiz ijod qilish imkoniyatini beradi. Bunda bolalar o'z fantaziyasiga asoslanib, erkin shakllar va yangi ob'ektlar yaratadilar. Bu esa ularning estetik didini, innovatsion fikrlashini va o'ziga xos yondashuvini shakllantiradi.

Shunday qilib, qurish-yasash faoliyatining mazkur turlari bolalarning kognitiv, ijodiy va amaliy rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qurish-yasash faoliyatini to'g'ri tashkil etish ularning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat nafaqat o'yin shaklidagi mashg'ulot, balki o'rganish, kashf qilish va shaxs sifatida shakllanish jarayonining ajralmas qismidir. Tarbiyachilar va ota-onalar ushbu faoliyatga yetarli darajada e'tibor qaratishlari, bolalarga erkin ijod qilish, tajriba orttirish va mustaqil fikrlash imkonini beruvchi sharoitlarni yaratishlari lozim. Buning uchun turli xil qurilish materiallari bilan ta'minlash, erkin tanlov imkoniyatini yaratish, pedagogik qo'llab-quvvatlash va xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etish muhim hisoblanadi. Qurish-yasash faoliyatini sistemali tashkil qilish orqali bolalarning kognitiv, sensor, ijodiy, jismoniy va kommunikativ rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V. A. – Maktabgacha tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Toshxo'jaeva S. – Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
3. Shodiyeva N., Abduqodirova D. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda konstruktiv faoliyatni shakllantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Eshnazarova N. Q. – Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2021.
5. Jo'rayev M. – Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati. – Toshkent, 2018.
6. Веракса Н. Е., Комарова Т. С. – Развитие конструктивной деятельности дошкольников. – Москва: Просвещение, 2016.
7. Беляева Л. И. – Развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста. – Москва: Академкнига, 2019.
8. Грачева Л. В. – Игровая деятельность в детском саду: конструирование и моделирование. – Санкт-Петербург, 2020.
9. STEAM yondashuviga asoslangan qurish-yasash faoliyati bo'yicha metodik tavsiyalar – MTT uchun. – 2022-yil.
10. "Ilk qadam" dasturi – maktabgacha ta'lim muassasalari uchun namunaviy o'quv dasturi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.